

# **Tax Free: sayyohlar O‘zbekistonda amalga oshirilgan xaridlaridan QQSni qanday qaytarishlari mumkin**

**2023 14 Fevral**

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Urganch xalqaro aeroportlarida Tax Free tizimi joriy etilishi munosabati bilan chet el fuqarolari endi O‘zbekistonda xarid qilingan tovarlardan qo‘shilgan qiymat solig‘ini (keyingi o‘rinlarda — QQS) qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tax Free – xalqaro QQS qaytarish tizimi. Chet elda xaridlarni amalga oshirgan sayohatchilar tashrif buyurgan mamlakat fuqarolari emasligi sababli tovarlar va xizmatlar narxining ushbu qismini to‘lashlari shart emas. Shu sababli, sayyohlar chet el safarlarida xarid qilgan tovarlar uchun QQSni qaytarib olishlari mumkin.

Tax Free tizimiga qanday tovarlar kiradi?

Tax Free tizimi tatbiq etiladigan tovarlar – quruq mevalar, yong‘oq, parfyumeriya, pardoz, charm va mo‘ynali mahsulotlar, yog‘ochdan yasalgan buyumlar, gilam, ipak buyumlar, kiyim-kechak va aksessuarlar, poyabzal, sopol buyumlar, maishiy texnika, telefon, soat, o‘yinchoq, sport anjomlari va boshqalar. Chet el fuqarolari tovar sotib olingan kundan boshlab uch oy ichida pulni qaytarish imkoniga ega. Xaridning umumiy summasi kamida 1 million so‘m bo‘lishi kerak.

Keshbek qanday amalga oshiriladi?

Chet el fuqarosi App Store yoki Play Market‘dan “Soliq” mobil ilovasini yuklab olib, mobil telefon raqami orqali ro‘yxatdan o‘tishi kerak. So‘ngra, “Umumiy xizmatlar” bo‘limida “Tax Free”ni tanlab, xaridlar uchun olingan cheklarning QR-kodini skanerlash darkor. Xarid summasidan QQS summasi avtomatik ravishda hisoblanadi.

Yo‘lovchi jo‘nab ketadigan kuni:

1. Uchib ketish aeroportida parvozni amalga oshirish uchun ro‘yxatdan o‘tishi kerak;

2. Xalqaro aeroport jo'nab ketish terminalining kirish tomonida ro'yxatdan o'tish zalida joylashgan Tax Free shoxobchasiga murojaat qilishi lozim;

3. Bortga chiqish talonini, mahsulot va shaxsni tasdiqlovchi hujjatni shoxobcha xodimlariga ko'rsatishi kerak. Mahsulot ochilmagan, ishlatilmagan va yo'lovchining yonida bo'lishi muhim.

Shoxobcha xodimi cheklarda ko'rsatilgan tovarlarni tekshiradi va Tax Free avtomatlashtirilgan tizim orqali chet yellik fuqarolarni ro'yxatdan o'tkazadi. Bunda xarid qilingan tovarlar uchun jami to'langan QQS summasining 90 foiz qismi to'lab beriladi. Xorijiy fuqarolar o'zlarining xalqaro bank hisob raqamiga yoki bank kartasiga pul mablag'larini tovarlar ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab keyingi oyning 25-kunidan keyin olishlari mumkin bo'ladi.

Tax Free tizimiga kiritilgan tovarlarning to'liq ro'yxati bilan tanishish va qo'shimcha ma'lumotni (<https://taxfree.soliq.uz/>) havolasi orqali bilib olishingiz mumkin.